



№ 04/1-2184

2024 - yil 26 - avgust

Denov tadbirkorlik va pedagogika insituti tadqiqotchisi Saitov Suxrobning “O.Genri ijodi va o‘zbek hikoyachiligida insoniy taqdir, shaxs va jamiyat munosabatlaridagi mushtaraklik” mavzusida 10.00.06. – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligidan Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi ilmiy natijalaridan foydalanilganligi to‘g‘risida

MA’LUMOTNOMA

Denov tadbirkorlik va pedagogika insituti tadqiqotchisi Saitov Suxrobning “O.Genri ijodi va o‘zbek hikoyachiligida insoniy taqdir, shaxs va jamiyat munosabatlaridagi mushtaraklik” mavzusida 10.00.06. – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligidan Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi ilmiy natijalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan PF-201912258. “O‘zbek adabiyotining ko‘p tili (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” grant loyiha ishini amalga oshirishda muhim nazariy manba sifatida foydalanilgan. Jumladan:

- O.Genri ijodini o‘zbek ijodkorlari asarlari bilan adabiy parallellikda o‘rganish, asarlaridagi umumiylik va tipologik xususiyatlarni belgilash;

- badiiy obrazning nazariy asoslari, O.Genri asarlaridagi qahramonlarning o‘zbek adabiyotidagi personajlar bilan adabiy, g‘oyaviy-badiiy hamohanglik tamoyillarini aniqlashga oid xulosalaridan;

- adabiy obrazlar holati, makon-zamon, milliy o‘ziga xosliklar (AQSH - o‘zbek kishisi timsoli) boshqa-boshqa bo‘lgani holda, umuminsoniy g‘oyalar va odatlar kesimida o‘zaro uyg‘un holatida tahlil etilgan hamda O.Genrining hikoyanavislik uslubidagi mahorati o‘zbek adiblari uchun ham xos ekanligi haqidagi chog‘ishtirma misollardan.

Natijada, jahon adabiyotshunosligida shakllangan adabiy o‘xshashlik, adabiy mushtaraklik, adabiy parallellik kategoriyalari asosida O.Genri ijodi hamda o‘zbek milliy adabiyoti namunalari qiyoslanishi haqidagi qarashlar mukammallashgan.

S. Saitov ushbu loyihada bevosita ishtirok etmagan.

Asos: loyiha rahbari ma’lumotnomasi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti OO‘MTVning 16.07.2021-yil 311-sonli buyrug‘iga muvofiq tayanch oliy ta’lim muassasasi hisoblanadi.

Rektor



Sh.Sirojiddinov